

**ADABIY TURIZM XALQARO TURIZMNING YETAKCHI YO'NALISHI SIFATIDA
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)****Zeboxon Qobilova****Qo'qon universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori, f.f.d., professor.****Feruzaxon Xabibullayeva****Qo'qon universiteti Andijon filiali Pedagogika,
psixologiya va filologiya kafedrası mudiri,
f.f.f.d. (PhD), dotsent****Abdulazizbek Qodirov****Qo'qon universiteti Andijon filiali
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy turizmning xalqaro turizmdagi ahamiyati, sohaning mamlakat madaniy hayotida tutgan o'rni, Andijon viloyatida adabiy turizmning bugungi holati va uni rivojlanish istiqbollari xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, xalqaro turizm, adabiy turizm, adabiyot, yodgorlik, uy-muzey, maqbara, svilizatsiya, monument.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot va xalqaro aloqalarning rivojlanib borishi natijasida ko'plab sohalar qatorida xalqaro turizm yo'nalishi ham taraqqiy etmoqda. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev sohaning mamlakat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati muhimligini ta'kidlab, "Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda"[2:15],- degan edilar.

Mamlakatimizda turizmning yangi istiqbollari ochilib, turli yo'nalishlarda keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda off-road sayyohatlari, rafting, heliski, geoturizm, ta'lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo'nalishlari bilan bir qatorda adabiy turizm ham taraqqiy etib bormoqda.

Asosiy qism: Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo'lmoqda[1:3]. Shu jihatdan olib qaraganimizda, Respublikamizda madaniy turizm sohaning boshqa turlariga qaraganda ko'proq rivojlanganligini va uni amaliy jihatdan tadqiq etish, kelgusida istiqbolli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlarni belgilab berish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qo'qon, Namangan va Andijon kabi madaniy turizm rivojlangan viloyatlarning har birida turizm bo'yicha erishilayotgan rentabellik ko'rsatgichlari chet eldan kelayotgan sayyohlar hisobiga keyingi yillarda sezilarli ravishda ortdi. Turizm borasida so'z yuritilar ekan, ilmiy muhitda madaniy turizmning boshqa turizm turlaridan nimasi bilan farq qilishini aniq asoslab berish masalasi ko'tariladi. Shu sababli, madaniy turizmni mahalliy shart- sharoitlarni inobatga olgan holda atroflicha o'rganish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Turizm tarixiga nazar solar ekanmiz, sohaning paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qabilalarning yashash joylarini o'zgartirishi, mamlakatlararo savdo aloqalarining rivojlanishi, harbiy yurishlar va erkin sayyohlarning sayohatlari natijasida turizm yaxlit yo'nalish sifatida shakllana borgan. O'tgan ikki asr davomidagi insoniyat tarixining mislsiz taraqqiyoti ko'plab sohalar qatorida xalqaro turizmga ham ta'sir ko'rsatib, sohada bir qancha yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Adabiy turizm ham sohadagi yangi yo'nalishlardan biridir.

Adabiy turizm - bu adabiyot bilan bog'liq joylarga sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm yo'nalishidir. Adabiy turizm obyektlari yozuvchi va shoirlarning uylari, muzeylar, badiiy asarlar

voqealari tasvirlangan joylar, adabiyot festivallari, ijod maktablari singarilarni o'z ichiga oladi. Adabiy turizm yo'nalishi G'arbiy Yevropa va Rossiyada boshlangan. Xususan, buyuk rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoy yashagan Yasnaya Polyana adib hayotligidayoq dunyoning turli chekkalaridan kelgan adabiyot ixlosmandlari, faylasuflar va sayyohlar bilan gavjum bo'lgan. Bu haqida fransuz faylasufi F.Rebe "Sharqqa sayohat" kitobida "Rossiyaning ikkita joyini ko'rganingizdan so'nggina haqiqiy Rossiya bilan tanishasiz, birinchisi Ermitaj, ikkinchisi Yasnaya Polyana" degan edi. Bundan ko'rinadiki, Rossiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy hayotda adabiy turizm alohida o'rin tutgan. Bundan tashqari, G'arbda Santyaga de-Kompestela, Stanford upon, Oksford, Konkord singari maskanlar adabiy turizmning dastlabki obyektlari hisoblanadi.

Mamlakatimiz turizm imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, adabiy turizmning soha rivojida alohida ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Yurtimizdan yetishib chiqqan olimlar, yozuvchi va shoirlarning uy-muzeylari, ular xotirasiga bag'ishlab tashkil etilgan yodgorlik muzeylari uzoq vaqtlardan buyon dunyo sayyohlarining e'tiborini tortib kelmoqda. Xususan, Andijon viloyatida ham adabiy turizmga oid ko'plab maskanlarni uchratish mumkin.

Andijon viloyati sanoat, mashinasozlik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va boshqa ko'plab sohalarda mamlakatimizda yetakchilik qiladi. Ammo, Andijon viloyati haqida gap ketar ekan, eng avvalo, Zahiriddin Muhammad Bobur nomi zikr qilinadi. Dunyo hamjamiyati Andijonni, avvalo, Bobur nomi bilan taniydi, Andijon va Bobur so'zlari egiz tushuncha sifatida qo'llanadi. Shu sababli viloyat turistik infratuzilmalarini shakllantirishda bu jihatga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, 1993-yilda yurtimizda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Shu munosabat bilan Andijon shahridan yetti kilometr uzoqlikda, Bog'ishamol tepaligida Bobur nomidagi yodgorlik xiyoboni ochildi. Buyuk so'z san'atkorining muhtasham haykali o'rnatildi, Zahiriddin Muhammad Bobur muzeyi tashkil etildi. Yodgorlik xiyobonining yuqori qismiga Agra va Kobuldagi shoir qabrlaridan tuproq olib kelinib, ramziy qabr maqbarasi o'rnatildi.

Yodgorlik uchun Bog'ishamol tepaligining tanlanishi ham emas. Avvalo, qulay iqlim sharoiti, betakror tabiat manzarasi sayyohlar va ziyoratchilar e'tiborini tortishi hisobga olingan bo'lsa, ikkinchidan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida bu tepalikda hujra va ayvonli go'zal bog' – sayr qilish va yolg'iz qolish uchun ajoyib joy borligini aytib o'tgan edi. Bobur Andijonni tark etishdan avval bu yerga xayrlashish uchun kelganligi ham tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Mazkur yodgorlik xiyobonni strategik jihatdan tashkil etishda tashkilotchilar optimal yechim topa olgan. Bu yerga kelgan sayyoh yoki ziyoratchining shoir ilmiy va adabiy merosi bilan bir qatorda go'zal tabiat manzarasidan ham bahramand bo'ladi. Bundan tashqari, adabiy turizmdagi *place-literature* (pleys-litrech) tushunchasi ham sayyohlar va ziyoratchilarni o'ziga tortadi. Ma'lumki, adabiy turizm yo'nalishlari ichida asar voqealari yuz bergan yoki badiiy asarlarda tasvirlangan joylarga sayohat uyushtirish alohida yo'nalish sifatida qayd etiladi. Xiyobon va muzey joylashgan manzilning "Boburnoma"da qayd etilishi esa bunga misol bo'la oladi.

Bobur yodgorlik majmuasi nafaqat me'moriy infratuzilmaning betakrorligi bilan, balki adabiy va tarixiy eksponatlarning ko'pligi bilan ham sayyohlarning e'tiborini tortadi. Jumladan, u yerda 3000 dan ortiq kitoblar, Boburning "Hind" devoni nusxasi, Bobur va Boburiylar tarixiga oid asarlar, tadqiqotlar va maqolalar sayyohlar va tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomini abadiylashtirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Bobur faoliyatini yanada yaxshiroq o'rganish maqsadida Zahiriddin Muhammad Bobur ekspeditsiyasi va "Bobur" xalqaro jamoat fondi tuzildi. Zokirjon Mashrabov boshchiligidagi amalga oshirilgan Bobur ekspeditsiyasi natijasida shoh va shoir hayoti hamda faoliyatiga doir yangi manbaalar aniqlandi, yangidan yangi moddiy va ma'naviy eksponatlar "Bobur" yodgorlik muzeyiga olib kelindi. Bu esa, albatta, viloyatimizda adabiy turizmning rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: qilib aytganda, adabiy turizm xalqaro turizmning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida mamlakat madaniy hayotida alohida o'rin tutadi. Adabiy turizmni rivojlantirish qator muhim afzalliklarga ega. Adabiy turizm adabiyot bilan bog'liq tarixiy joylarni saqlashga yordam beradi, adabiyot, tarix va madaniyat haqida ko'proq bilim olish imkoniyatini beradi, turizm sohasini diversifikatsiya qilishga yordam beradi va yangi sayyohlarni jalb qiladi. Adabiy turizm yozuvchi va shoirlar bilan bog'liq unchalik mashhur bo'lmagan hududlarning rivojlanishiga turtki beradi, adabiyotga qiziqishni oshiradi va kitobxonlikni rag'batlantiradi. Adabiy turizmni rivojlantirish madaniy merosni saqlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ta'limni rag'batlantirish va turizmni diversifikatsiya qilish orqali jamiyatga katta foyda keltiradi. Shu sababdan adabiy turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-4861.
2. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriyy and fazliyy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
3. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
4. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
5. Kobilova, Z. (2019). THE TRADITION AND FEATURE IN THE CREATIVE WORK OF AMIRIY. *Theoretical & Applied Science*, (9), 436-439.
6. Kabilova, Z. (2022). STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 669-671.
7. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(9), 58-67.

QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o'g'li,

University of Business and Science

oliy ta'lim muassasasi

til va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muzeylar insoniyatning tarixiy, madaniy va ilmiy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishning muhim manbalaridan biridir. Ular faqatgina tarixiy yoki madaniy obyektlarni saqlash joylari emas, balki insoniyatning rivojlanish yo'lini tushunish va o'rganish imkoniyatini yaratadigan muassasalar hisoblanadi. Muzeylar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy, ma'naviy va ta'limiy rol o'ynaydi. Ularning tashkil etilishi, rivojlanishi va jamiyatga ta'siri haqida gapirganda, bir necha muhim jihatlarni ko'rib chiqish mumkin.

Muzeylar xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni rivojlantiradi. Turli mamlakatlardan kelgan eksponatlar va ko'rgazmalar orqali turli xalqlar o'rtasida hamjihatlik va o'zaro tushunish o'rnatiladi. Madaniy va tarixiy asarlar boshqa mamlakatlarga ko'chirilishi yoki o'zgacha formatlarda taqdim etilishi orqali global miqyosda aloqalar o'rnatiladi. Bu jarayon xalqlarning madaniyatini o'rganish, uning boyliklarini qadrlash va turli madaniy qatlamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga yordam beradi.

O'zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosi, uning ulug'vor san'ati va ilmiy yutuqlari yillar davomida dunyo miqyosida tan olingan. Shu jumladan, Qayyumovlar sulolasi o'zining ajoyib faoliyati, ilmiy ishlari, san'at va madaniyatga qo'shgan hissasi bilan yurtimizning yuksalishida muhim rol o'ynagan. Qayyumovlar sulolasi uy-muzeyini tashkil etish nafaqat shu sulolaning